

VOLUME-1, ISSUE-12

Gilamchilik leksikasiga oid soʻzlar izohi


*Qodirova Mashhura*

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliy sanʼatning yetakchi turlaridan biri boʻlgan gilamchilik sohasiga oid bir qancha atama va terminlar izohlandi. Gilamchilik leksikasining bugungi kundagi ahamiyati koʻrib chiqildi.

**Kalit soʻzlar:** adilak, axta, girix, jingalak naqshi, arabi, gʻojari, besh kashta.

Amaliy sanʼat – eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasi. Insondagi goʻzallikka boʻlgan tabiiy intilish, goʻzallik qonunlari asosida yaratilgan bunyodkorliklarining yaqqol namunasi. Amaliy sanʼat asarlari, xususan, gilamchilik buyumlari insonning moddiy muhitini nafislashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi. Ibtidoiy davr hayotida odamzotning madaniyatga boʻlgan ilk qadami Amaliy sanʼatdan boshlangan desak xato boʻlmaydi. Qadimiyatning har qadamida turmush, roʻzgʻor taqazosi bilan turli buyumlar yaratilgan. Bu buyumlar foydalanishga qulay va bejirim qilib tayyorlangan. Mehnat qurollari, idish-tovoqlar va gilamlar shakl-u shamoyil bilan har jihatdan bejirim qilib ishlangan. Qolaversa, ularga turli xil naqshlar va tasvirlar tushirish orqali milliy madaniyatimizni koʻrsatib berishga erishishdan. Amaliy sanʼatning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan gilamchilik juda qadimiy tarixga ega. Koʻplab rus va oʻzbek olimlari gilamchilik sohasiga oid bir qator tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, Oʻrta Osiyo xalqlari sanʼatini birinchi boʻlib tadqiq etgan olimlardan N.Burdukov: “Sharq gilamchiligi badiiy ijodning eng qadimiy shakllaridan boʻlib, u bilan faqat ayollar shugʻullanadilar”[1:67], deb yozadi. Sharq gilamchiligi bilan Yevropa olimlari koʻpdan qiziqqa boshlagan boʻlsalar ham, amaliy sanʼatning bu tarmogʻi xususida haqiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borish XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlangan. Bu borada A.A.Bogabulovning Oʻrta Osiyoga sayohati davrida toʻplagan kolleksiyalari asosida tuzilgan albom diqqatga sazovordir. Oʻrta Osiyo xalqlari gilamchiligi tarixi, bu sanʼatning oʻziga xos xususiyatlarini yoritishda A.A.Semyonovning “Rus Turkistoni gilamlari” asari, shuningdek, S.Bulatov va M.Ashirovalarning “Amaliy sanʼat qisqacha lugʻati” asarlari muhim ahamiyatga ega.



VOLUME-1, ISSUE-12

Gilamchilik sohasini lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, bevosita uning leksikasiga to'xtalamiz. Tilimizda gilamchilik san'atiga aloqador bir qancha so'zlar mavjud. Xususan, S.Bulatov va M.Ashirovalarning "Amaliy san'at qisqacha lug'ati" kitobida gilamchilik san'atiga aloqador bir qancha so'zlar mavjud. Biz shulardan bir qanchasini tahlilda tortishni maqsad qildik. Dastlab gilam va gilamchilik leksikasining izohi bilan ishimizni boshlasak. Ular quyidagi ma'nolarni ifodalagan: **Gilam** – jun, ipak va sun'iy tolalardan to'qiladigan to'shama, ro'zg'or ashyosi, badiiy buyum. Asosan, xona sahniga bo'yra ustidan to'shaladi, bezak buyum sifatida devorga osiladi. To'qima, tikma(tayyor buyumga gul tikiladi) va bosma xillari mavjud. Gilamning naqsh-gullari turli rang va shakllarda bo'ladi. Patli va patsiz(palos) turlari mavjud. **Gilamchilik** – gilam to'qish kasbi, hunarmandlik sohasi. Qadimdan ayollar orasida hunar sifatida keng tarqalgan. Dastlab, yotiq holda yer bag'irlab o'rnatilgan pastak oddiy bo'lgan, keyinchalik takomillashgan turlari yaratilgan. Ayniqsa, patli gilam to'qish ancha murakkab. Chunki uning naqsh yoki guli sanama iroqiga o'xshatib, rangli iplarni nusxaga qarab terish asosida yaratiladi. Naqsh yaratishda bandlarning hisobi aniq bo'lishi lozim. Har joyning gilam to'qish usuli, rangi, naqsh-gullari o'ziga xos ko'rinishi bilan ajralib turadi.

Lug'atda adilak, axta, bo'yoqxona va zamin singari gilamchilik sohasiga aloqador so'zlar ham bor. Ularning ma'nosi quyidagicha: **Adilak** - ob-tarozi, yuzaning tekisligini aniqlaydigan asbob. Gilam yuzasidan tekis chiqishi uchun ishlatiladi. **Bo'yoqxona** – bo'yoq solinadigan xumlar saqlanadigan maxsus xona, do'kon. Bo'yoqchi ustalar ishlaydigan joy. **Axta** – ulgi. Naqsh yoki rasmni qog'ozga chizib, chiziq yo'llari igna bilan teshib tayyorlanadigan andoza. Naqshni yuzaga tushirishda ishlatiladi. **Zamin** – asos. Naqsh bezagining guldan tashqari tag qismi. Naqsh mujassamoti ranglarining ravshan va aniq ko'rinishida muhim o'rin tutadi. Gilamning tub rangi, foni.

Shuningdek, bir qancha islomiy va girix naqshlarning ham izohi keltirilgan. Jumladan, **abri bahor** – bulutsimon shaklli bezak. **Anorgul** – anor ko'rinishidagi islomiy naqsh turi. Ba'zan anorning ichki qismi ham tasvirlanadi. **Arragul** – arrasimon shakldagi naqsh. **Atirgul** – atirgul shaklidagi naqsh. **Baliq** – baliq shaklidagi naqsh. **Band** – novda. Islomiy naqsh bo'lagi. Tabiatdagi o'simliklar novdasi tasviri. **Barg** - o'simlik bargining badiiy ifodasi. Quyidagi turlari bor: shoxbarg (shobarg), qo'sh barg, ko'p barg, chorbarg, tolbarg, madohil barg, qo'shbodom barg va qalampir barg.

VOLUME-1, ISSUE-12

Gilamchilikda bu bezak turidan juda ko‘p foydalanishadi. **Bodom guli** – bodom naqshining takrorlanishidan hosil bo‘ladigan naqsh. Gilam bilan, asosan, ayollar shug‘ullangan, naqsh (gul)lar (islamiy, girih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urug‘ tamg‘asi va boshqalar)ni esa xotirada saqlashgan. Bezaklarida yo‘lbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo‘yni, qalqon, o‘simliklar ifodalangan, ayniqsa hayvon shoxi tasviri keng tarqalgan. [2:87] **Jingalak**-jingalak shaklidagi naqsh bo‘lagi. Gilamchilikda naqshlardagi to‘ldiruvchi qism vazifasini o‘taydi. **Girix** – handasiy naqsh. Murakkab naqsh turi. To‘rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan tashkil topadi. Tuzilishi jihatdan to‘g‘ri chiziq, egri chiziq, va aralash chiziqlardan tashkil topgan girix turlarga bo‘linadi. Geometrik naqsh uzluksiz taqsimlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir taqsim o‘z tuzilishiga ega. [3:12]

Gilamning bir nechta turi mavjud. Lug‘atda shular ham o‘rin olgan. Xususan, **arabi** – jun va paxta tolasi aralashtirib, gilam stanogida to‘qiladigan naqshli, patsiz, taqir gilam. Ilgari ko‘proq Qarshi va Denovda to‘qilgan. Arabi gilamning bir qancha turi juda ko‘p xalqlar orasida tarqalgan. **G‘ojari** – sholchanning yo‘llariga mayda naqshlar solinib to‘qiladigan bir turi. G‘ojari nomi to‘qish texnikasiga ko‘ra paydo bo‘lgan nomga u qadar o‘xshamaydi. G‘ojari so‘zining etimologiyasi Quyi Qashqadaryoning Kasbi tumanida yashovchi “kojar” urug‘i nomi bilan aloqadordir. **Besh kashta** - yo‘liga jun tolasidan naqsh tikilib, to‘qiladigan sholcha. Bu turdagi sholcha turkmanlarda ham to‘qiladi. Turkman tilida besh kashde deb yuritiladi.

Xalqimizning milliy-madaniy an‘analari va tarixini bevosita aks ettiruvchi leksik birliklarni atroflicha o‘rganishda, moddiy madaniyat yodgorliklaridan biri hisoblangan, gilamchilik buyumlari ishonchli manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning leksik tarkibi shunday xazinaki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma’lumotlar saqlanadi. Xalqning kelib chiqishi, rivojlanishi, hayoti va madaniyatini leksikada o‘z aksini topadi. Bunda amaliy san’at leksikasi muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bulatov B., O‘zbek xalq amaliy san’ati. -Toshkent 1982.
2. Jabborov I., O‘zbek xalqi etnografiyasi, 1994.
3. Bulatov S., Ashirova M., Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. -Toshkent 1992.

